

HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA KURSANTLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

B. T. Xaitov

Chirchiq OTQMBY Gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada harbiy ta'lismuassasalarida kursantlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik va psixologik xususiyatlari haqida fikrlar bildirilgan. Butun dunyoda yoshlar va ularning vatanparvarlik sifatlariga ochiqdan-ochiq tahdidlar ortib borilayotgani va ularga qarshi kurashish lozimligi uqtirilgan.

Kalit so'zlar: harbiy vatanparvarlik, ta'limgardiy, harbiy vatanparvarlik motivlari, harbiy vatanparvarlik sifatlari.

ABSTRACT

This article comments on the pedagogical and psychological features of the education of cadets in military educational institutions in the spirit of military patriotism. All over the world, open threats to youth and their patriotic qualities are being raised and the need to be combated.

Keywords: military patriotism, education, military patriotic motives, military patriotic qualities.

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk kunlardan harbiy ta'lismuassasalarida kursantlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, uning pedagogik va psixologik asoslarini ishlab chiqish hamda amaldagi ta'limgazmuniya singdirish kun tartibidagi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Mazkur masala mustaqillik, ozodlik, hurlik, erkinlik, davlat va jamiyat rivojini ta'minlovchi lokomotivlardan biri ekanligiga alohida e'tibor qaratila boshlandi.

Xususan, bo'lajak ofitserlarda harbiy vatanparvarlikni nafaqat ta'limgardiy orqali singdirish, balki ajdodlarimizdan bizga meros qolgan millatimizning ma'naviy va moddiy qadriyatlarini asrab avaylash, davlatimizda bunyod etilayotgan zamonaviy bino va inshootlardan faxrlanish tuyg'usini tuyish, mazkur bino va inshootlar, davlat va jamiyatimizning bir bo'lagi hamda kelajak avlod uchun bugungi milliy bunyodkorlik tafakkuri va ma'naviy ongimizdan dalolat beruvchi manbalardan biri ekanligi pedagogik jihatdan singdirilib, psixologik jihatdan motivatsion drayver sifatida e'tirof etilgan.

“Bugungi kunda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash juda muhim vazifadir.

Mintaqamiz va dunyodagi vaziyat tobora keskinlashib bormoqda. Milliy xavfsizligimiz, tinch va osoyishta hayotimizga nisbatan taxdid va xatarlar kuchaymoqda.

Shu bois hushyorlik va ogohlilikni oshirish, o‘zaro hamjihatlik va birdamligimizni mustahkamlash, har qanday tahdidlarga munosib javob berishga tayyor bo‘lib yashash hayotning o‘tkir zaruratiga aylanmoqda” [1], deb ta’kidlaydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi sharoitda harbiylarda Vatanni sevish, milliy qadriyatlarimizga, boy va buyuk tariximizga cheksiz hurmat va bu bilan faxrlanish, xalqimizga xos bo‘lgan oilaning muqaddas deb bilish, o‘zidan kattalarga nisbatan hurmat, kichiklarga mehr va e’tibor tuyg‘ularini kamol toptirish juda muhim [2-131].

Bizga ma’lumki, davlat va jamiyatda qayta qurilish yoki bir davrdan ikkinchi bir davrga o‘tishda ma’naviy omil bilan bog‘liq bo‘shliqlar, yot kuchlar tomonidan boshqa manbalar bilan to‘ldirilishiga doimiy harakat amalga oshiriladi. Xususan, mustaqillikning ilk davrida G‘arbning “ma’naviy qadriyatları”, “demokratiya” tushunchalari va tamoyillari ostida har xil oqimlarning kirib kelishi, dunyoviy manfaatlarning milliy va etnik axloqiy va diniy qadriyatlardan ustuvorliklarini “rang barang” qilib ko‘rsatish nafaqat vatanparvarlik tuyg‘ulari shakllanayotgan yoshlari, qolaversa, bo‘lajak ofitserlarning faoliyatiga “soya” solib, ularni ongi va tafakkurini tom ma’noda o‘zlariga xayrixohlik elementlari bilan to‘ldirishga urinishlar kuzatiladi.

Ma’lumki, harbiy vatanparvarlik g‘oyalari millatimiz va xalqimiz tarixida muhim o‘rinlardan birini egallagan va hozirgi vaqtida ham dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Davlat va jamiyatning tarixiy rivojlanishi shuni ko‘rsatadiki, vatanparvarlikning roli va ahamiyati tarixning keskin burilishlarida, jamiyatda amalga oshirilayotgan tub islohotlarda, davlatchilikni shakllantirishda, turli bosqinlar davrida, milliy ma’naviy va madaniy qadriyatlarni saqlab qolishda, chetdan turib qo‘zg‘atilgan milliy va etnik mojarolar davrida, din bilan bog‘liq fundamental va ekstremistik oqimlarning g‘alayonli namoyishlarida, tabiiy va boshqa ofatlarda obyektiv tendensiyani ta’minlab, fuqarolarning jismoniy va ma’naviy kuchini birlashtirishga hamda bir millat va uyushgan xalq sifatida anglangan faoliyat sari muvofiqlashgan harakatlar koordinatsiyasini ta’minlashda ustuvor masala bo‘lib xizmat qilgan.

Harbiy vatanparvarlik barcha kishilar, xalqlar, millatlar uchun umumiyl bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan

umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biridir. Tarixiy jihatdan harbiy vatanparvarlik kishilarning o‘z Vatani taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurash jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular majmuidir. Harbiy vatanparvarlik, vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi. Darhaqiqat, sharaflı va olıyanob bo‘lgan burchni bajarish, har bir insonni yurtni asrab-avaylash, e’zozlash, uning kelajagi uchun qayg‘urishga, xalqiga, prezidentiga sodiq xizmat qilish, davlatning obro‘-e’tiborini mustahkamlash, qadr-qimmatini saqlash, jamiyatda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda kursantlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasi harbiy ta’lim muassasasi faoliyatining muhim va ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Kursantlar shaxsida shakllantiriladigan harbiy vatanparvarlik tarbiyasi ularda Vatanni sevish, uning har bir sarhadi va chegaralarini himoya qilish, suvrenitetini asrab avaylash hamda mustaqilligining ishonchli kafolati hisoblanadi. Shuningdek, kursantlar shaxsida shakllantiriladigan harbiy vatanparvarlik tuyg‘usi uning barcha faoliyat turida dominant bo‘lib, o‘zini to‘liq namoyon qilish hamda yosh askarlar va qo‘l ostidagi shaxsiy tarkib uchun ideal shaxs qiyofasini gavdalantirib, kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan fazilatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida singdiriladigan harbiy vatanparvarlik tarbiyasi kursantlarning keljakda shaxsiy va kasbiy faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, ular duch keladigan shaxsiy va kasbiy muammolarning konstruktiv yechimini topishda asos bo‘ladi.

So‘nggi yillarda, butun dunyoda yoshlar va ularning vatanparvarlik sifatlariga ochiqdan-ochiq tahdidlar ortib borilayotganini kuzatish mumkin. Bugungi kunda yoshlarning ongi va tafakkuriga “egalik” qilish, ularni o‘z ona Vatani va xalqiga emas, balki boshqalarni manfaatiga xizmat qildirish yuzasidan bir qator xorijiy mamlakatlarning “ideolog va psixolog mutaxassislari” tomonidan “yumshoq pedagogik yondashuv” hamda “sivilizatsiyalashgan ta’lim-tarbiya” borasidagi targ‘ibot va tashviqotlari tobora faollashmoqda. Informatsion jamiyatda yashayotganligimiz nuqtai nazaridan, global tarmoqdagi informatsiyalarni cheklash yoki nazorat qilish imkoniyati ancha past. Shu nuqtai nazardan, bu kabi tahdidlar harbiy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarni ham chetlab o‘tmasligi tabiiy holdir. Kursantlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash xorij “mutaxassislari” tomonidan amalga oshirlayotgan “miya chayish” operatsiyalariga nisbatan immunitetni shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy pedagogik-psixologik omil bo‘lib hisoblanadi.

Mazkur masalada Y.A.Tyugashev ilmiy mulohazalari o‘rinli bo‘lib, uning nuqtai nazaricha, bugungi kunda yosh avlod ongida hayot maqsadi va mazmunini yo‘qotishga, shaxsiy faoliyatdagi qiyinchiliklarning yuzaga kelishi boshqalar haqidagi g‘amxo‘rlik omili ekanligi, undan qutilish uchun shaxs o‘zini o‘ylashi kerakligi yuzasidan “miya chayish” yoki “miya oqish” operatsiyalari xorij “mutaxassis”lari tomonidan faol olib borilmoqda. Bu operatsiyaning taktik maqsadi nafaqat yoshlarga, balki bo‘lajak ofitserlar faoliyatiga ham ta’sir ko‘rsatish ustuvor masala etib belgilangan bo‘lib, davlatning mudofaa qobiliyati, fuqarolarining xavfsizligi, Vatanni himoya qilish, ertangi kunga bo‘lgan ishonch hissini pasaytirish hamda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini yo‘qotishdir [4].

Kursantlarda harbiy vatanparvarlikni shakllantirishda asos bo‘luvchi tizimli pedagogik yondashuvning tarkibiy qismi kasbiy bilim, ko‘nikma, malaka va o‘quv jarayonining yo‘nalganligi hamda harbiy jangovar faoliyatda amaliy tajribani muvaffaqiyatli namoyon etish bilan belgilanadi. Shuningdek, kursantlarning kasbiy bilimlariga harbiy jangovar tayyorgarlik, maxsus harbiy tayyorgarlik, maxsus harbiy psixologik tayyorgarlik va boshqalar kiradi. Kursantlar tomonidan mazkur kasbiy bilimlarni egallashda pedagogik ta’lim va tarbiya muhim ahamiyat kasb etib, uning negizida texnologik va tashkiliy, kommunikativ munosabat va o‘quv jarayonini yuqori darajada o‘zlashtirish hamda harbiy vatanparvarlik fazilatlarini qaror toptirish samaradorligi ortadi.

NATIJALAR

Kursantlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda motivlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ulardan foydalanishning psixologik jihatdan kombinatsion muvofiqligini ishlab chiqish, mexanizmni yaratish har bir davr uchun muhim masala bo‘lib kelgan.

Kursant shaxsida shakllanadigan harbiy vatanparvarlikning motivi har qanday shaxsiy, amaliy va moddiy manfaatni inkor etib, haqiqiy ma’noda davlat va jamiyat uchun mustahkam “qo‘rg‘on” va “buzilmas “qal’a” vazifasini o‘taydi.

Zamonaviy harbiy ta’limda kursantlar shaxsida shakllanadigan harbiy vatanparvarlikning motivlari quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- Vatan va yurt himoyasi uchun harbiy operatsion va rasmiy vazifalarni bajarishda harbiy qasamyod va burchlilik mas’uliyati nuqtai nazaridan anglangan faoliyat turi sifatida yondashish;

- harbiy kasbiy faoliyat hamda shaxsiy vatanparvarlik sifatlarini yuqori darajada o‘z shaxsida qaror toptirish asosida topshirilgan taktik va strategik harbiy topshiriqlarni fidokorona amalga oshirish;

- Vatan xavfsizligi va chegaralar daxlsizligini ta'minlash hamda suverenitetini saqlashda shaxsiy javobgarlik va burchlilikni anglash, doimiy shaylikning yuqori darajadagi tayyorgarlik holati;

- Vatanga muhabbat va sadoqat, qo'l ostidagi askar va serjantlarga kasbiy va shaxsiy ibrat namunasi bo'lish hamda sharafli burchni ado etishda mardlik va jasorat ko'rsatish.

Mazkur motivlar kursantning shaxsiy va kasbiy faoliyat jarayonida bir-biri bilan bog'liq bo'lib, xulq-atvorning ichki mexanizmlarini o'zida aks ettiradi. Harbiy ta'limda kursantlar shaxsida shakllanadigan harbiy vatanparvarlikning motivlarini pedagogik usul va texnologiyalar asosida tizimli amalga oshirish hamda ichki muvofiqlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Harbiy ta'lim muassasalarida vatanparvarlikning motivlarini pedagogik usul va texnologiyalar asosida tizimli amalga oshirish mamlakat manfaatlari va qadriyatlarini himoya qiladigan yuqori bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan bo'lajak ofitserlarni tayyorlash zaruratidan kelib chiqadigan zamonaviy yondashuv hisoblanadi. Kursantlarda harbiy vatanparvarlikning motivlarini pedagogik usul va texnologiyalar asosida tizimli amalga oshirish zamonaviy harbiy ta'lim va tarbiyani tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Mazkur yondashuv kursantlar shaxsida shakllanadigan harbiy vatanparvarlik tarbiyasining asoslarini, o'quv jarayonida professional tartibda shakllantirish va rivojlantirish omillarini hamda harbiy vatanparvarlik qadriyatlarining poydevorini yaratishning pedagogik imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi.

MUHOKAMA

Yangi O'zbekistonning zamonaviy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik tizimini takomillashtirish, innovatsion o'qitish texnologiyalarini o'quv jarayoniga realizatsiya etish davlat va jamiyatning ustuvor vazifasiga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uzlusiz olib boriladigan ishlarning negizi, davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanishi hamda jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'lishi lozimliginihamda kadrlar masalasi, qo'shinlarni zamonaviy qurol-yarog'lar bilan ta'minlash, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish, harbiy xizmatchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga taalluqli muammolar ta'lim va tarbiya jarayoni bilan bevosita bog'liqligiga to'xtalib, ularni o'z vaqtida bartaraf etish masalasiga e'tibor qaratgan [5].

Jamiyatimiz yoshlarida Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "2023-2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiysi" qabul qilindi. Konsepsiyaning 2-bob 6-bandida yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflı va muqaddas burch ekanligini singdirish, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish masalasi pedagogik-psixologik jihatdan yoritilgan [6].

Oliy Bosh Qo'mondonning harbiy vatanparvarlik yuzasidan bildirgan nutqi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-sonli Qarorida belgilangan vazifalar kursantlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik texnologiyalarini ilmiy nuqtai nazardan o'rganish va zamonaviy yondashuvlarni ta'lim jarayonida qo'llashni taqozo etadi.

Harbiy oliy ta'lim muassasalarida bilim olish va o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat sog'lom munosabatlar hamda imkoniyatga ega bo'lish bilan bog'liq modellashtirish omillariga muvofiqlashib, anglangan faoliyatni mazmuniga aylanadi hamda kursantlar va ofitserlar munosabatining mohiyatini belgilaydi. Muayyan faoliyat informatsion va emotsiyal funksiyalarni bajarib, kommunikativ munosabatlarni tartibga soluvchi faollikning motivatsion idealini boyitadi. Faollikning motivatsion idealining barqarorlashuvi munosabatlar muvofiqligini yuqori cho'qqiga olib chiqqan holda kursantlarda ijtimoiy tuyg'ularni shakllantiradi hamda bilim olish, o'qib o'zlashtirish bilan bog'liq emotsiyal qobiliyatni ratsional qobiliyatga o'tishini ta'minlaydi. Emotsional qobiliyatni ratsional qobiliyatga o'tish jarayoni kognitiv faoliyat turini namoyon etish jarayonining yuzaga chiqishiga xizmat qilib, o'qib o'rganish bilan bog'liq xatti-harakatlarning funksionalligini ta'minlaydi va sifat bosqichga olib o'tadi. Mazkur jarayonda vatanparvarlikning shakllanishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy-axloqiy tarbiya mexanizmi paydo bo'ladi. Ushbu mexanizm quyidagi formulaga muvofiq amalga oshiriladi:

pedagogik tarbiya va psixologik tayyorgarlik + bilim va g'oyalar + motivlar + his-tuyg'u va munosabatlar + ko'nikma va malakalar + faoliyat va xatti-harakatlar + ijtimoiy-axloqiy fazilatlar = vatanparvarlik sifatlari

Mazkur mexanizm oliy harbiy ta'lim muassasalari ta'lim va tarbiya jarayonida vatanparvar shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi: unda tavsiya etilayotgan har bir komponent muhim bo'lib, ulardan hech bo'limganda bittasini chiqarib tashlash yoki boshqasi bilan almashtirish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Aksincha, uni

to‘ldirish va mukammallashtirish uchun maqsad va vazifadan kelib chiqqan holda ijtimoiy-psixologik omillarga muvofiqlashgan komponentlarni zamon nuqtai nazaridan qo‘sish lozim.

Bugungi kunda, kursantlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim vosita va tarkibiy qismlariga shaxsga xos individual psixologik xususiyatlari, ma’naviy va axloqiy sifatlari, madaniy va ma’rifiy fazilatlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy-siyosiy ongi va tafakkurini kiritish maqsadga muvofiq bo‘lib, milliy-harbiy qadriyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kursantlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy shakl, usul va vositalaridan yuqori pedagogik texnologiyalar asosida foydalanish harbiy ta’lim sifatini oshirib, yuqori samaradorlikka erishish imkonini ta’minlaydi.

Shu nuqtai nazardan harbiy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida kursantlarning shaxsiy faolligini oshirish, o‘zini o‘zi tarbiyalash hamda kasbiy qobiliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq psixologik yondashuvlarni pedagogik texnologiyalar negizida amalga oshirish zarur. Mazkur yondashuv pedagogik-psixologik jihatdan kursantni o‘zini o‘zi tarbiyalashga yo‘naltirilgan maqsadli motivini yuzaga chiqarib, bo‘lajak ofitserni yuqori malakali mutaxassis, professional harbiy xizmatchi hamda harbiy vatanparvar shaxs sifatida ideal komandir shaxsini qaror toptiradi. Ta’lim-tarbiya jarayonidagi pedagogik yondashuvning psixologik omillarga muvofiqlashuvi kursantlarni o‘zini o‘zi tarbiyalash jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularni o‘z ustida doimiy ishlashga, jangovar harbiy ta’lim sir-asrorlarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga va zamonaviy harbiy xizmatchi uchun zarur bo‘lgan harbiy vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishga undaydi.

Yosh avlodni har tarafloma sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalash g‘oyat murakkab va uzoq vaqt ni talab qiladigan jaraendir. Farzand tarbiyasi hech qachon bizni kutib turmaydi. Ayniqsa bugungi g‘oya va mafkuralar kurashi avj olgan bir paytda, kelajak avlod tarbiyasi har qachongidan ham muhim hisoblanadi. Yoshlar tarbiyasiga beparvolik, loqaydlik kelajakda tuzatib bo‘lmas og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Agar bu vazifani biz bugundan boshlab, èshlarimiz qalbi va ongida ezgulik g‘oyalarini, yuksak axloqni, èshi ulug‘ insonlarga hurmatni shakllantira olsak nafaqat o‘zimiz, balki jamiyatimizning rivojiga ulkan hissa qo‘shtan bo‘lamiz [7].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kursantlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash harbiy pedagogika va harbiy ta’lim tizimining muhim omili bo‘lib, ularda kasbiy va shaxsiy natijaga erishish hamda serjant va askarlar uchun namunali ofitser shaxsni shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, kursantlarni harbiy vatanparvarlik ruhida

tarbiyalashning psixologik imkoniyatlari, pedagogik usul va vositalari professional harbiy ofitser va yuqori malakali mutaxassislarni milliy axloqiy qadriyatlarga muvofiq tayyorlashning asosi bo‘lib, harbiy ta’lim muassasalarda ilmiy-ma’naviy muhit ustuvor ekanligidan dalolat berib turadi.

Muhtaram Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: “tomirlarida buyuk bobolarimizning qoni oqayotgan yoshlarimiz ulug‘ ajdodlarimizning munosib vorislari bo‘lishi, ular kabi ulkan maqsadlar sari intilib yashashi va yuksak marralarga erishishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishimiz zarur. Yangi O‘zbekiston yoshlari ana shunday yuksak darajalarga ko‘tarilishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solamiz” [1].

REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoyev. (2021). Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Т.: “O‘zbekiston”, 258-263.
2. А.Сотиб-Олдиев., А.Каримжонов. (2005). Ҳарбий педагогика. –Т.: “Шарқ”, - Б.131.
3. Худаяров Я.А. (2023). Ёшларни миллий қадриятларга хурмат руҳида тарбиялаш ва ватанпарварлик туйғусини шакллантириш // Analytical Journal of Education and Development. ISSN: 2181-2624. Volume: 03 Issue: 01 | -Б.82.
4. Тюгашев Е.А. (2002). У истоков патриотического воспитания: культ предков и зарождение таможенного дела / Е.А.Тюгашев, Г.А.Выдрина // Тезисы доклиов и выступлений на 3 региональной научно-практической конференции. - Новосибирск, - С. 316-320.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Хавфсизлик кенгашининг кенгайтирилган таркибдаги мажлисидаги нутқи // Халқ сўзи, 3-сони. - 2017 йил. 10 январ.
6. Ташматов Б.Х. (2018). Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш – давлат сиёсати марказида //Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти ахборотномаси. -№ 2. -Б.4.
7. Хайтов, Б. Т. (2021). Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда ахборот хуруjlаридан химоялаш. Academic Research in Educational Sciences, 2(10), 257-263.